

BOLALAR IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDA FOLKLORNING O'RNI VA ROLI (BOSHLANG'ICH SINIF MISOLIDA)

Amonov Ulug'murod Sultonovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,

BuxDUPI dotsenti

Hoshimova Shahnoza Ixtiyorovna

BuxDUPI 2-bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar ijodkorligini shakllantirishda folklorning o'rni va roli tasnifi, tavsifi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini, nutqini shakllantirishdagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Folklor xalq og'zaki ijodi, paremik janr, so'z qadri, folklorshunos, bolalar adabiyoti, bog'lanishli nutq, til an'ana, qadriyat ertak, topishmoq, matal masal, maqollar, tez aytishlar.

Til va tafakkur bir – biriga bog'liq jarayon. Millatning til ravnaqi, shubhasiz, uning badiiy asarlarida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi ana shunday tafakkurni shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni haqida gap ketar ekan, aslida, bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, erkalamalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo'shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi. Xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg'ayishi uchun muhim omillardan biridir. Bola ana shu qadim an'ana va qadriyatlar ichida voyaga yetadi, biroq bugungi global jamiyatda ulg'aygani sari go'yo bu muhitga begona bo'la boshlaydi. Bu begonalik eng avvalo har qadamda o'z ta'sir kuchini ko'rsatayotgan ommaviy madaniyat ta'siridan boshlanadi. Bulaming barchasi ma'naviyat ravnaqiga emas, aksiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa, ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlarida, maktabgacha ta'limdan to oliy o'quv yurtlarida til o'qitishda, o'rganishda folklarga va yana folklarga qaytib ish ko'rish lozim bo'ladi. Xalqning til boyligi birinchi navbatda uning folklorida namoyon bo'ladi. Biror xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o'rganish zarur. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarsi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi. Og'zakililik, variantlilik folklorning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u xalq og'zaki ijodi namunalari bevosita jonli ijro jarayoni bilan bog'liq ekanligini urg'ulaydi, ya'ni folklor asarlariga turg'unlik xos emas, u har galgi ijroda o'zgaradi, yangilanadi. Bu esa badiiy til imkoniyatlarining yuksak namoyishi demakdir. Shuning uchun aytish mumkinki, folklor - shunchaki so'z san'ati emas namunasigina emas,

balki xalqning til zaxirasi , tushuncha va tafakkur tarzini bor bo'y basti bilan o'zida aks ettirgan, olis o'tmishdan to bugunga qadar jonli holatda

xalqning o'zi bilan birga yashab kelayotgan doimiy harakatdagi tarixi va madaniyati hamdir. Folklor atamasini birinchi bo'lib 1846- yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib , u “ xalq donoligi “ degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda , folklor deganda , xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari me'morlik , naqqoshlik ganchkorlik, zardo'zlik musiqa, raqs , og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni haqida gap ketar ekan, aslida bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Momolarimiz , onalarimiz aytgan allalar , erkalatmalar , aytimlar , topishmoqlar tez aytishlar , ertak va qo'shiqlar bolaning tili dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi. Xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan , ham jismonan ulg'ayishi uchun muhim omillardan biridir. Bola ana shu qadim an'ana va qadriyatlar ichida voyaga yetadi, biroq bugungi global jamiyatda ulg'aygani sari go'yo bu muhitga begona bo'la boshlaydi. Bu begonalik eng avvalo har qadamda o'z ta'sir kuchini ko'rsatayotgan ommaviy madaniyat ta'siridan boshlanadi. Bularning barchasi ma'naviyat ravnaqiga emas , aksiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa , ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlarida maktabgacha ta'limdan to oliy o'quv yurtlarida til o'qitishda , o'rganishda folklarga va yana folklarga qaytib ish ko'rsatish lozim bo'ladi. O'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda albatta folklarning o'rni beqiyos. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini folklor orqali mustaqil fiklashni o'rgatish bu o'qituvchining salohiyati bilimi va tajribasiga bog'liq. Endi unib o'sib kelayotgan yosh nihollarni qaday barvarishlash albatta bog'bonning mahorati hisoblanadi. Darsliklarda berilgan ertak , topishmoq tez aytishlar umuman barchasi bolalarning nutqiy rivojlanishiga tafakkurini o'stirishiga yordam beradi. Xalq og'zaki poetik ijodini o'rganish sohasini folklorshunoslik deymiz. Folklorshunoslik adabiyotshunoslik tarkibidagi mustaqil fan hisoblansada,

o'rganish obyekti badiiy adabiyot bo'lgani sabab bir qator umumiy va mushtarak jihatlari bor. Bolalar folklori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o'zaro uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar , qo'shiqlar va musiqiy poetic janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og'zaki ijodiyotining o'ziga xos tarmog'idir . Boshlang'ich sinf darsliklarida keltirilgan maqollar ham ularning ma'naviy dunyosini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqollarda so'z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin emas. Uar milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo'ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bor bo'lib, shakl yaratilishi, maqsadiga ko'ra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Dunyodagi barcha xalqlar og'zaki ijodida maqollarchilik shaklan va mazmunan o'zaro yaqin janr deyarli yoq. Xalq maqollari shaklan she'riy va nasriy

bo'ladi. Ammo nasriy maqollar ham she'riy misralarni eslatadi. Maqollarda hayotiy voqea – hodisa haqida qat'iy hukm ifodalanadi.

MAQOLLAR

1. Ona yering omon bo'lsa
Rangu-ro'ying somon bo'lmas.

2. Sen qo'rqmasang yov, qochar.

3. Tomchi –sel bo'lmas
Dushman-el bo'lmas.

Bundan tashqari boshlang'ich sinf darsliklaridagi tez aytishlar ularning burro tilda so'zlashishga, so'zlarni to'liq talaffuz etishga, hushyorlikka, ziyrak, va chaqqonlikka undaydi. Tez aytishlar yoki so'z o'yinlari o'zbek xalq og'zaki ijodi turlaridan biri bo'lib, ayrim nutq tovushlarining ko'p qaytarilishi yoki tovushlarning so'z va iboralar tarkibida murakkab joylashishiga asoslanadi. Tez aytishlar vositasida bolalar ona tilidagi tovushlarni va so'zlarni ravon, burro, aniq talaffuz etishini, tovushlar ohangdorligini, so'zlarning nozik ma'nolarini his va idrok qilish, aniqlash va ilg'ab olishni mashq qiladilar. O'zbek xalq og'zaki ijodida tez aytishlar, so'z o'yinlari qadim zamonlardan buyon bor. Lutfiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ham so'z o'yinlarini uchratish mumkin. Alisher Navoiy tuyuqlari haqida so'z yuritar ekan, uning ildizlari xalq poeziyasi janrlaridan kelib chiqishiga ishora qilib, tuyuqlarni yor – yor, qo'shiqlar bilan bir o'ringa qo'yadi. Aksariyat tez aytishlar talaffuzi bir – biridan kata farq qiladigan fonemalar asosida, jumladan, “SH”, “L”, “R”, undoshlari asosida tuzadilar.

TEZ AYTISHLAR

1. Muzxonada muzlagan muzdakkina muzqaymoq.

2. Sojida-yu Saodat sinfdosh va sirdoshlar.

3. Chang ko'chani changitib chuqur soyda cho'mildim.

4. Qora,qizil qalamni qalamdonga qamadim.

5. Katta-katta ko'zmunchoq
Ko'ylaginga ko'rk munchoq.

6. Chirq-chirq-chirq chug'urladi chug'urchoq.

7. Chori chayilgan choynakka choyni chamalab soldi.

8. Yozda yoqqan yoz yomg'iri yon atrofga yog'dek yoqti.

9. Tal'at ta'tilda tanlovga tayyorlandi.

10. Qahraton qishning qahri qarg'ani quvontirdi.

11. Chumchuq, chittak chug'urlashib,
Chumolini cho'qir shoshib.

12. Tolib to'pni topib tepid,
G'olib to'pni tolib tepti.

O'zbek bolalar folklorining qaysi turini aytmaylik bu ularni ma'nan yetuklikka yosh avlodni intizomli , jasur , qat'iyatli , qiyinchiliklarni yengishga o'rtoqlariga yordam berishga tayyor bo'lish singari yaxshi sifatlariga ega bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Uning ayrim namunalari maktab darsliklarda va o'qish kitoblarida kiritilgan. Bularga misol etib ertak , hikoya , sheri hikoyalarni aytishimiz mumkin. Bularning barchasi o'quvchilarga har tomonlama ibratomuz hisoblanadi. Ertak va hikoyalarda yaxshilik , ezgulik, rostgo'ylik, mardlik, kabi fazilatlar ayni haqiqat etib ko'rsatilgan. Faqatgina bunda o'qituvchi o'quvchilarga haqqoniy dildan yondashib ularga obrazlarni to'g'ri talqin etgan holda mazmunli tushuntirishi zarur. Bu esa har bir ustozning mahorati saviyasi va chuqur bilimiga bog'liq hisoblanadi. Hurmatli

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev jamiyatda eng e'zozli , hurmatli inson bu- muallim deya baralla ishonch , buning ma'nosi barcha ustoz, muallim jamiyatdagi yosh avlodimiz ta'lim – tarbiyasiga birdek mas'ullikni bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амонов У. С. НАУЧНЫЙ ПОДХОД А. ФИТРАТА К ПОСЛОВИЦАМ //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
2. Amonov U. S. O 'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD) MQ Salohiddinova, BuxDU boshlang 'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
3. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.
4. Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
5. Ulug'murod Sulstonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sulstonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
6. 1.Adizov Bakhtiyor Rakhmonovich, Adizova Nodira Bakhtiyorovna [Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District](#) Middle european scientific bulletin 2021/3/12